

**O‘ZBEKISTON MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TAYYORLOV
GURUHLARIDA VATANPARVATLIK TUYG‘ULARINI
SHAKLLANTIRISH SHAKL VA USULLARI**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) 2-bosqich
magistranti **Ergasheva Nigora**
Tel: +998996692389*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongi va qalbida vatanga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish hamda vatan tuyg‘usini to‘g‘ri shakllantirish maqsadida tashlik etilgan.

Tayanch so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tashkiloti, vatan, vatanparvarlik, milliylik, urf-odatlar, an’analar, insonparvarlik, do‘stlik, yaratuvchanlik, pedagogik texnologiyalar.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО
НАСЛЕДИЯ НАШИХ ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ В ФОРМИРОВАНИИ
ПАТРИОТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ВОСПИТАННИКОВ
ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ**

Аннотация: данная статья призвана воспитывать воспитанников дошкольных учреждений в духе патриотизма, пробуждать в их умах и сердцах любовь к Родине и правильно формировать чувство Родины.

Базовые слова: дошкольная образовательная организация, отечество, патриотизм, национальность, традиции, традиции, гуманизм, дружба, творчество, педагогические технологии.

**The use of spiritual and educational heritage of our great ancestors in the
formation of patriotic skills in schoolchildren of preschool age**

Annotation: this article aims to educate preschoolers in the spirit of patriotism, instill in their minds and hearts a love for the motherland, and correctly form a sense of the motherland.

Base words: preschool educational organization, homeland, patriotism, nationalism, customs, traditions, humanity, friendship, creativity, pedagogical technologies.

Bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shallantirishda biz bevosita mashg‘ulotlar va hamkorlik dasturlari bilan ish olib borgan holda amalga oshirmog‘imiz lozim.

MTTda olib borayotgan har bir mashg‘ulot doirasida vatanparvarlikni bola ongiga, uning ruhiyatiga, psixologiyasiga bevosita ta’sir eta olamiz. Xususan, mashg‘ulotlar uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari”(Davlat standartlari) tarkibiga kiritilgan namunaviy o‘quv dasturi va rivojlantiruvchi markazlar hamda maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari bilan barobar ish olib orilishi kerakli natijalarni beradi.

Bolaning rivojlanish sohalari

- Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi“ sohasi;
- Ijtimoiy-hissiy rivojlanish“ sohasi;
- Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari“ sohasi;
- Bilish jarayonining rivojlanishi“ sohasi;
- Ijodiy rivojlanish“ sohasi.

Bolalarni rivojlantirish markazi

1. Qurish, yasash markazi;
2. Syujetli-rolli o‘yin va sahnalashtirish markazi;
3. Til va nutq markazi;
4. Fan va tabiat markazi;
5. San’at markazi;
6. Musiqa va ritmika markazi.

6 dan 7 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy soni

- Atrofdagi olam bilan tanishtirish;
- Tabiat bilan tanishtirish;
- Nutqni rivojlantirish;
- Savodxonlikka o‘rgatish;
- Badiiy adabiyot;
- Elementar matematika;
- Musiqa;
- Tasviriy faoliyat va applikasiya

Yuqorida sanab o‘ganlarimizni bir-bir o‘rganib chiqsak:

Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanish sohasi - bu sohada bolalarning har tomonlama jismoniy rivojlanishi, sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish, gigeyina qoidalarga rioya qilish, bolalarning rivojlanish bosqichlari, yoshiga mos o‘sish darajalari, jismoniy sifatlarini turli harakat faoliyatlarida rivojlantirish, jismoniy kuch, jismoniy harakat qobiliyatlarini shakllantirish, harakatlar faolligi, mardlik, qahramonlik, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik, kuch

kabilarni shakllantirish barobarida bolalarni safda turish, tug‘ri chiziq bo‘ylab qadamma-qadam yurishni, kolonna, aylana xosil qilish, ketma-ketlikda safda yurish qoidalarini o‘rganish, sog‘lom turmush tarzi bilan yashash asosida vatanparvarlikni targ‘ib qilib, umumrivojlantiruvchi mashqlarda bolalar ongiga singdirib boriladi;

ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasida - mustaqillikka intilish, shaxsiy fazilatlarini, kattalar va tengdoshlari orasida o‘zini tutish qoidalarini, turli vaziyatlarga konstruktiv yechim topishga o‘rgatish, oila a‘zolariga munosabat, yon-atrof, olam tushunchasi, hamdo‘stlik, hamfikrlik, sadoqat, mehr-oqibat, ichki va tashqi kechinmalarni bayon etish, hamsuhbat bo‘lish, qadr-qimmatni anglash kabilarni bola psixologiyasiga, uning ijtimoiy muhida moslashib rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatish;

nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasida - nutqiy savodxonligini oshirish, qisqa jumladan iborat gaplar hosil qilish, syujetli rasmlardan kichik hajmli hikoyalar tuzish, dialogik va monologik nutqda ravonlikka o‘rgatish, Vatan tushunchasini to‘g‘ri anglab yetishlari uchun xalq og‘zaki ijodi, vatanparvarlikni anglatuvchi hikoya, ertaklarni o‘qish, qayta hikoya qilishga o‘rgatish, ularni tahlil qilib mazmunan tushunishga o‘rgatish;

bilish jarayonining rivojlanishi sohasida - Davlat ramzlari, millati, respublikasini nomini, shahrini, mahallasini, o‘zining ko‘chasini, ona tili haqidagi bilimlarni mustahkamlash, Vatanni anglatuvchi rasmlarga qarab hikoyalar tuzishni o‘rgatish;

ijodiy rivojlanish ya‘ni kreativlikni oshiruvchi yo‘nalishda - plastilin, qalam, turli bo‘yoqlar hamda rangli qog‘oz kabilar haqida ma‘lumotlar va ularning xususiyatlari bilan tanishtirish, turli sodda shakldagi kompozitsiyalar ustida ishlash, bolalarda ijodiy ishga munosabatni uyg‘otish, she‘riyat, musiqa, san‘at, raqs, badiiy adabiyot olami kabilar bilan tarbiyalanuvchilar uchun qulay hamda ta‘limiy o‘yinlar va vatanparvarlik tushunchalarini hosil qilish, uni rivojlantirish uchun turli kompozitsiyalar yaratish bilan bosqichma-bosqich o‘rganib boriladi.

Qurish, yasash markazi – bolalar mashg‘ulotlar va mustaqil o‘yin faoliyati davomida qurush-yasash ishlarini olib borishadi. Bu jarayon asosan geometrik shakllar (kub, prizma, silindr va hokazo), tabiatdan olingan tabiiy materiallardan (archa daraxt mevasi kabi), mashg‘ulotlardan tashqari tarbiyachi nazorati ostida (taxtali, plastmassa, metal va keramika) lardan foydalanib qurush-yasash ishlarini bajarib turli konstruktor o‘yinlarda foydalanib, tasavvuridagi uyi, mahallasi, qishlog‘i, shahri, vatani maketini yasab, quruvchi konstruktor vazifasini bajaradi. Bu mashg‘ulotlar mobaynida bolalar matematikada hisoblash, katta-kichik, oldida, ortida, yonida, ostida, ustida kabi tushunchalar bilan bir qatorda Vatan tasavvuri bilan ong osti psixologiyasida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish usullaridan biridir.

Syujetli-rolli o‘yin va sahnalashtirish markazi – sahnalashtirish o‘yinlari tarbiyalanuvchi hayotida muhim o‘rinni egallaydi. Bunda bola ijtimoiy hayotga

tayyorlanib boradi. Bolada vatanparvarlikni shakllantirish jarayonida personajlar hathti-harakatini kuztib, ularni ijro etish orqali tasavvur olamini shakllanishi, sezgilarning rivojlanishi, diqqat, idrok, tafakkurning rivojlanishi namoyon bo‘libgina qolmasdan rolga kirish barobarida nutqiy rivojlanish, ohang, mimika(yuz harakati), pontomimika(imo-ishora) kabi mushak va hissiy rivojlanishga erishadi.

Misol uchun, tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga o‘qib bergan vatanparvarlikni targ‘ib etuvchi ertaklarni obrazli shakllantirish bilan yetkazishi bolalarda tasavvurni kengaytiradi va qayta hikoya qilib berish jarayonida aynan tasavvur olami qahramonlarini ohang va ijroda ochib berishga harakat qiladi. Ushbu voqiylikda bolalar aynan Vatanni asrash, uni sevish, himoya qilish, dushmanlarga qarshi chiqish kabi hislarini namoyon etishga harakat qilishadi.

Til va nutq markazi – bizga ma‘lumki bu markazda tarbiyalanuvchilar didaktik o‘yinlar, turli rasmlar, bolalar kutubxonasi uchun kitoblar, magnitli harflar, rasmlar “Alifbo” raqamli va turli xil hikoyalar tuzish uchun ertak qahramonlari tasvirlangan kartochkalardan foydalanib, nutqiy ravonlikka erishadilar. Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllanirish uchun mamlakatimiz tasviri, shaharlar rasmi, askarlar, harbiy xizmatchilar, yo‘l patrol xizmatchilari, milliy havfsizlik xizmatchilar, o‘t uchiruvchi kabi kasblar aks ettirilgan kartochkalardan foydalanib turli hikoyalarni tuzishlari, uni so‘zlab berishlari orqali nutqiy rivojlanishda vatanparvarlikni shakllantiramiz.

Fan va tabiat markazi –bolalar bu markazda bevosita tabiat va undagi hodisalar, manzaralar maketlari, rasm va illyustratsiyalar, valiologiya(tibiiy salomatlik), tatqiqot va tajribalar uchun turli to‘plamlar, hayvonlar, hashoratlar, qushlar va dengiz hayoti haqidagi tushunchalarni yorituvchi maketlardan foydalanib Vatanimiz tabiati, uning tuzilishi, tog‘lari, bog‘lari, hayvonot olami, quruqligi, suvli muhuti haqida ma‘lumot berish barobarida o‘rganganlari ishtirokida ma‘lum bir voqiylikni birgalikda tashkil etib, hikoya etish asosida yoritib boriladi.

San‘at markazi – bu markazda tarbiyalanuvchilar boy madaniy meroslarimiz bilan bir qartorda dekorativ amaliy san‘at, millatlar aro madaniyat, ularning hayoti, hunarmandchilik mahsulotlari tasviri, erkin ijodiy faoliyat uchun rasmlar kitoblar, xalqimiz shoirlari, mutaffakkurlari porter rasmlari, kichik ijodiy namunalari, buyuk bobokolonlarimiz, mard sarkardalarimiz hayoti bilan tavishtirib borilishi, she‘r, qo‘shiq yod olishi va ijro etishi bilan Vatan tushunchasini shakllantirishda yana bir markaz sifatida faoliyat yuritadi.

Musiq va ritmika markazi – bu markaz mashg‘ulotlar ichida tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda markazlar faoliyati davomiyligi, mashg‘ulotlar oraliq vaqtida bolalarni mashg‘ulot bilan kichik tanafuslarni uyg‘unlikda olib borilishidir.

Shu o‘rinda tarbiyalanuvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini qanday shakllantirish, tarbiyalash kerak? - degan savol tug‘iladi.

Masalan, g'alaba kuni may oyida keng nishonlanadi. Buni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Tantanali tadbirlar hech bir bolani befarq qoldirmaydi. Bolaga bu bayram nima ekanligini tushuntirish kerak. Ammo yoshni hisobga olgan holda: "Ko'p yillar oldin bizning yerimiz, shahrimizga dushmanlar hujum qilishdi. Ammo bizning jasur askarlarimiz, yingilmas bobolarimiz bosqinchilarni quvib chiqarishdi. Bu juda qiyin edi, shuning uchun har yili biz ularning jasoratini eslaymiz, shuning uchun ularga hurmatimizni bildiramiz". Keyinchalik bolalarda tushunchalar paydo bo'lib borishi bilan batafsilroq suhbatlashishimiz mumkin: harbiy texnika, orqa ishchilar, jasur qahramonlar haqida, mintaqaviy jangovar shon-sharaf muzeyiga sayohat, yodgorliklarga e'tibor qaratamiz. Masalan: ko'plab familiyalar yozilgan esdalik lavhalar. Usha davrgacha bo'lgan binolar, inshaootlar, turli tabiat manzaralari, shaharlarimiz ko'rinishlari va urush vaqtida qay holatga tushirilgani hamda bugungi kunimizda qayta tiklanganlar haqida tasvirlar orqali ma'lumotlar berib boramiz. Shunday qilib, familiyalari doskada yozilgan bu odamlar bizning Vatanimiz uchun bu yerlarda kurashdilar. Ular qo'rqib ketishmadi, o'z uylarini, qarindoshlarini va hatto begonalarini himoya qilishdi. Shuni qo'shimcha qilish kerakki, faxriylar (jang qilganlar) hozir juda keksa. Ular mamnun bo'lishi mumkin (masalan, lolalar yoki chinnigullar guldastasini berish; o'z qo'llaringiz bilan tabriknomani yasab, yozing) – deya amaliy mashg'ulot davomida tarbiyalanuvchilar bilan birga yasab, tilaklar yozib bajaramiz.

Bolalarda vatanparvarlikni daraja ko'rsatkichlarini qanday tarbiyalash kerak: 6-7 yosh bolalar boy tasavvurga ega va biror narsani o'rganish uchun katta istakka ega. Kattalar uchun eng muhim narsa bolalarni faktlar bilan "Quriqmaslikdir", "Sadoqat", "Jangovarlik", "Jasurlik", "Mardlik" kabi qiyosiy daraja ko'rsatkichi orqali vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday narsa qiziqarli, yorqin, hissiy bo'lishi kerak.

Vatanparvarlikni daraja ko'rsatkichlaridan yana biri bu ota-ona tomonidan berib boriladigan tushuncha bilan ham o'lchanadi. Bu borada avvalo oila tarixi degan tushunchaga tuxtalamiz:

Ota – onalar vatanparvarlikni uyg'otish uchun qila oladigan birinchi narsa-bu bolani o'z oilasi tarixi bilan tanishtirish, ota-bobolari qayerdan kelib chiqqan, qayerda yashagan, qanaqa kasbning egasi bo'lgan, qilgan ishlagan, nimani yaxshi ko'rgan, nimaga erishgan va nimani orzu qilgan va erishgan yutuqlari haqida aniq ma'lumotlar berib bolishi yaxshi natija beradi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda vatanparvarlik hissini shakllantirish, ularni yuksak manaviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalash bugungi kunning eng muhim mavzusi. Bu borada olib borilayotgan har qanday tashabbusning natijasini tahlil va o'rganishlar ortidan rivojlantirib borishimiz to'g'ri va to'liq yo'lda ekanligimizni ko'rsatib bermoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodni vatanparvarlik ko‘nikmalarida tarbiyalash, o‘zib kelayotgan kelajagimiz ustunlarini mustahkam iroda va yengilmas kuch egasi etib shakllantirishda oila, mahalla, MTT va maktab hamkorligini yanada mustahkamlovchi chora-tadbirlarni tashkillashtirish, uni amalga tadbiriq etish, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda nafaqat ta‘lim jarayonini turli ko‘ngil ochar tadbirlar hamda vatan himoyachilari va shu kabi ko‘plab kasb egalari bilan uchrashuvlar, turli madaniy sayohatlarni amalga oshirish bilan ham rivojlantirib borishimiz mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi qator me‘yoriy hujjatlar, jumladan O‘zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to‘g‘risida"gi qonuni bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va ta‘lim tashkilotlari hamkorligini yanada mustahkamlashni taqzo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мактабгача таълим муассасаларида таълим жараёнини мавзувий режалаштириш (катта гурух) Дастур тузувчилари: Л.Евстафева, Ш.Набиханова, С.Пак, Д.С.Усмонова, М.Р.Ашрабходжаева, Х.У.Ризаева, Л.Нуриддинова, Ф.Каримова, Г.Б.Мусаева, Г.М.Нурмухаммедова, М.Х.Мухамадалиева, Ф.А.Гайфулина. Тошкент.: 2018 йил.
2. БОЛАМ БАХТЛИ БЎЛСИН, ДЕСАНГИЗ...(ТАРБИЯ КИТОБИ) ЎФИЛ-ҚИЗИНГИЗ ТАРБИЯСИДА ДАВЛАТ СИЗГА МАДАДКОР. Т.: "МАЪНАВИЯТ" 2014. - 1-боб. - Биринчи сухбат. - 12-63 бет.
3. ВАТАНИМИЗНИНГ ТИНЧЛИГИ ВА ХАВФСИЗЛИГИ ЎЗ КУЧ-ҚУДРАТИМИЗГА, ХАЛҚИМИЗНИНГ ҲАМЖИҲАТЛИГИ ВА БУЕИЛМАС ИРОДАСИГА БОҒЛИҚ(нутқ): Ислом КАРИМОВ, Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ўн тўртинчи сессиясидаги нутқ. Т.: 2014 йил 29 апрель - 13-19 бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги —Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмонан баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-3907-сонли Қарори// - Т.: Қонун ҳужжатлари миллий баъзаси. 2018. 1706-сон. 1-ИЛОВА
5. Abdulla AVLONIY **Turkuy guluston yoxud axloq:** Ibratli hikoyalar/Abdulla Avloniy. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. -96 b.
6. Nargiza KAYUMOVA **МАКТАБГАЧА ПЕДАГОГИКА** о‘quv qo‘llanma **О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMLI TOSHKENT DAVLAT PЕDAGOGIKA UNIVERSITETI** 5110801- Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim y o 'nalishi talabalari uchun - Toshkent-2013.- 68-78 b.

7. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI UCHUN ILK QADAM DAVLAT O‘QUV DASTURI /TAKOMILLASHTIRILGAN IKKINCHI NASHR/ Toshkent-2022
8. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTLARI Vazirlar Mahkamasining 2020-yil22-dekabr802-son qarori 1-ILOVA

